

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

ALOHIDA TA'LIMGA MUHTOJ BOLALARINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
QO'LLAB-QUVVATLASHNING AHAMIYATI

D.Adamboyeva

Urganch innovatsion university,  
“Pedagogika va boshlang'ich ta'lism metodikasi”  
kaferdrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada alohida ta'limga muhtoj bolalarini pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash borasidagi ma'lumotlar, inklyuziv ta'lim borasidagi mamlakatimizda olib borilayotgan qator ishlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, alohida ta'limga muhtoj, pedagogik-psixologik, qo'llab-quvvatlash, inklyuzivlik, nuqsoni bor bola, o'smir, nogiron.

Bugungi kunda alohida ta'limga muhtoj bolalarga bo'lgan alohida e'tibor qonun, farmon va huquqiy-normativ hujjatlarda aks etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-sod Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida bir qator ishlari amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.[1]

Bundan tashqari Ta'lim to'g'risidagi qonunning 20-moddasida quyidagi jumlalar keltirgan.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Unga ko'ra alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalarini qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, ularni ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish borasida bir qator ishlari amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda inklyuzivlik, inklyuziv ta'lim, inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalarining mazmunlarini yoritib o'tsak.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, **inclusive** qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.[2]

Inklyuziv ta'lim- o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.[3]

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari: Inklyuziv ta'lim tizimida qo'yidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagagi tenglik xuquqini kafolatlash; - jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ixtiyolarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oiladan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Inklyuziv ta'limning barcha ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil etish g'oyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- inklyuziv ta'limni umumta'lim muassasalarining amaliy faoliyatida rejalashtirish va amalga oshirish uchun asos sifatida qo'llab-quvvatlashning xilma-xilligini hisobga olish;
- o'zaro bog'liq bo'lgan bosqichlarni aniqlash asosida qo'llab-quvvatlash jarayonini yaratish: strategiyalar, taktikalar va texnikalar;
- yuqorida qayd etilgan ta'lim muassasalari uchun aniq texnologiyalar, mos uslub, yo'l va vositalarni ishlab chiqish;
- ta'lim muassasalarining integratsion faoliyatini rivojlantirish sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash jarayonini takomillashtirilib boriladi.

### Nogironligi bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning asosiy umumiyy maqsadlari quyidagilar:

- bolaning rivojlanishidagi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish;
- bolaga rivojlanish, tarbiya va ijtimoiylashuvning dolzarb muammolarini hal qilishda yordam berish;
- individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- ta'lim dasturlarini psixologik qo'llab-quvvatlash;
- adekvat o'zini o'zi qadrlashni shakllantirish;
- jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini (psixologik madaniyatini) rivojlantirish;
- jamiyatda alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish.

Xulosa o'rnida shuni aytimiz mumkinki agarda alohida ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlasak:

- ijtimoiy hayotga moslashishi yengil bo'ladi
- ta'limni o'zlashtiriidiagi qiyinchiliklarni yengil yenga oladi
- sinfdoshlar jamoasiga moslasha oladi va ular bilan munosabatlarga kirisha oladi
- kelajak hayotga ishonch uyg'onadi

### Foydalangan adabiyotlar

1. Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4860-sonli qaror
2. Qodirova Feruzaxon Usmonovna, Pulatova Dilfuza Azamkulovna. Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot."Yangi chirchiq book" nashiryoti. Chirchiq-2022, 252 bet
3. Pedagogik atamalar lug'ati.-T.: "Fan", 2008.-B.47.
4. S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova, Inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish. Metodik tavsiya. Toshkent-2020, 32 bet